UO‘K: 811.512.133’33

“UYAT” KONSEPTI LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA

M.B. Mahmudova

Antropotsentrik tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri konseptdir. Maqolada “uyat” konsepti lingvomadaniy birlik sifatida tadqiq etilib, uning o‘zbek madaniyatida tutgan o‘rni “uyat” konsepti semantik maydonini tashkil etuvchi leksemalar va uning yasamalari ishtirok etgan kontekstlar hamda “uyat” semasi mavjud birliklar tahlili misolida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, konsept, “uyat” konsepti, emotsional yondashuv, deontik yondashuv, freym, o‘zbek millati.*

Одним из центральных понятий антропоцентрической лингвистики является концепт. В статье исследуется концепт «стыд» как лингвокультурная единица и раскрывается его роль в узбекской культуре, на примере анализа лексем, выражающих концепт «стыд» и контекстов, в которых задействованы единицы с семой «стыд».

Ключевые слова: *лингвокультурология, концепт, концепт «стыд», эмоциональный подход, деонтический подход, фрейм, узбекская национальность.*

Bilish jarayoni konseptuallashtirish bilan bog‘liq bo‘lib, bu hodisani inson har doim ham anglamaydi, ya’ni ong osti predmet va harakatlarni insonni o‘rab turgan olamni tahlil qilish yordamida bir-biriga assotsiatsiya qiladi. XX asr oxirida vujudga kelgan lingvomadaniyatshunoslik fanining markaziy tushunchalaridan biri konsept hisoblanadi. Konseptning har qanday ko‘rinishi lingvomadaniyatshunoslik predmeti bo‘la olmaydi. Biz madaniyatning asosiy konseptlari deb olam manzarasining madaniyatga xos bo‘lgan yadro (bazaviy) birliklarini ataymiz, ular alohida til shaxsi uchun ham, umuman lingvomadaniy hamjamiyat uchun ham ekzistensial ahamiyatga ega [1. B. 39].

Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo‘ladi, u o‘zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni biriktiradi. Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o‘taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi [2. B. 45]. Ana shunday konseptlardan biri “uyat” konseptidir.

“Uyat” konsepti muayyan madaniyatning ichki olamida shakllanuvchi, axloqiy me’yorlarga amal qilgan holda yuzaga chiquvchi lingvomadaniy ko‘rsatkichdir. Mazkur konsept ostida kognitiv jarayon yotadi va u har bir insonning “Men”ida individual tarzda yuzaga chiqadi, o‘z millati, xalqi madaniyatidan kelib chiqqan holda shakllanib boradi.

Inson o‘zini anglashni boshlashi bilan unda uyat shakllanadi. Yosh bolalarda uning mavjud bo‘lmasligi fikrimizning dalilidir. Bolalarda uyatning shakllanishi jamiyat bilan bog‘liq. Uning qarindoshlari o‘z madaniyatlari va dinlaridan kelib chiqqan holda bolaga uyat hissini tanishtiradilar. Demak, bizda mavjud bo‘lgan madaniy va diniy taqiqlarning aksar qismi uyat bilan bog‘liq ekan.

“Tarzan bolalar” haqida internetda ko‘p ma’lumotlar uchraydi. Bunday bolalar jamiyatdan ajralgan holda yashagan va ular uchun odob-axloq qoidalari, etiket, gigiyena kabi tushunchalar mutlaq begona edi. Uyat hisoblanishi mumkin bo‘lgan bir qancha xatti-harakatlar esa ular uchun oddiy holat hisoblangan. Shundan ham xulosa qilish mumkinki, uyatning rivojlanishi ko‘proq sotsiologik jarayonga bog‘liq bo‘ladi. Psixologiyada kommunikatsiya jarayonidagi muhim elementlardan biri sifatida uyatchanlik hissi keltiriladi. Bu hissiyot uchun eng yaqin bo‘lgan distributsiyalar ham aniqlangan bo‘lib, ular xijolatlilik, aybdorlik va qo‘rquv tuyg‘ularidir. “Psixologiyada uyat inson mavjudligining motivatsion tizimini tashkil etuvchi o‘nta asosiy his-tuyg‘ular (quvonch, qayg‘u, g‘azab, jirkanish, nafrat, qo‘rquv, aybdorlik, ajablanish, qiziqish bilan birga)) qatoriga kiradi” [3]. E.P.Ilyin uyatni kommunikativ tuyg‘u deb tasniflaydi. Uning ta’kidlashicha: “uyat odam boshdan kechiradigan kuchli his-tuyg‘ulardan biridir va uni butunlay o‘ziga singdiradi, bu qo‘rquv va tashvish bilan bog‘liq ijtimoiy tuyg‘u” [8. B.180].

“Uyat” konsepti ustida izlanishlar olib borgan olimlarning fikricha, uyat faqatgina o‘z komfort zonasidan, ya’ni o‘zini eng qulay, eng sokin his etuvchi makon yoki zamondan tashqariga chiqqandagina yuzaga keladi. “R.Ye.Gergilovning ta’kidlashicha,

na normalar, na boshqaning mavjudligi uyat manbai emas. Chunki “Birlamchi uyat insonning psixofizik yoki psixosomatik mavjudot sifatida ikki tomonlama shakllanishiga asoslanadi. Uyat keltirib chiqaradigan asosiy qarama-qarshilik o‘ziga da’vo qilishdir. Shaxs o‘ziga o‘zi ma’lum talablar qo‘yadi va agar uning harakatlari shu talablarga mos kelmasa, uning nazdida sharmanda bo‘lishi mumkin” [7. B.19]. M.Y.Lotman ham rivojlanishning dastlabki bosqichlarida jamoada inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi uyat va qo‘rquv hissi haqida fikr yuritar ekan, “qo‘rquv hayvonot dunyosidagi taqiqlarni tartibga solish mexanizmi sifatida ishlaydi. Uyat esa qadimdan shakllangan madaniy taqiqlar doirasida insonning xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim omil” [6. B.435] ekanligini ta’kidlaydi.

H.Plesnerning fikricha, “uyat – bu odamning pozitsiyasini ifoda etadigan universal antropologik doimiylik, ongning ikkiga bo‘linishidir” [5. B. 295]. Olim inson miyasining o‘ng va chap yarim sharlari haqida so‘zlamaydi, uningcha, inson jamiyatda va o‘z “men”ida yashaydi. Jamiyatdagi qonun-qoidalarga bo‘ysunish, etiketga amal qilish – uyatga qolmaslik uchun eng to‘g‘ri yo‘l bo‘lsa, inson o‘zi bilan yolg‘iz qolganda bu qoidalarni, axloq-odob me’yorlarini unutadi, o‘zini erkin his etadi, haqiqiy “men”ini namoyish etadi. Aynan shu sababdan u uyatning ijtimoiy ekanligini ta’kidlaydi. Hatto eng yaqin do‘stlar, oila a’zolari, er-xotin o‘rtasida ham muomala, xatti-harakatlar, gap-so‘zlar chegarasi mavjud bo‘lib, bularning barchasi “uyat” konseptiga bog‘liq. Chegara deyilganda ma’lum xatti-harakatlarning ortib ketmasligi, me’yorda bo‘lishi tushunilishi kerak. Bunday holda uyat hissi jamiyat a’zolarining aloqa-munosabatida namoyon bo‘ladi. Uyat intensiv bo‘lib, chegaraning buzilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin, kommunikantlar bir-birlariga qanchalik begona bo‘lishsa, ushbu hisning eng quyi pog‘onasi kuzatiladi, kommunikantlarning o‘zaro yaqin aloqalari natijasida esa u ortib boradi. Buning asosiy sababi – uyat hissini tuyayotgan shaxs uchun o‘z yaqin insonining fikri, his-tuyg‘ulari muhim ahamiyatga, qadr-qimmatga egaligidir.

Ta’kidlash lozimki, har bir madaniyat vakili uchun “uyat” konsepti o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uyatning yuzaga kelishi psixologik jihatdan barcha uchun gomogenlik kasb etsa, kommunikatsiya jarayonida uni namoyon qilish, unga javob qaytarish, u bilan bog‘liq voqea-hodisalarga munosabat bildirish, baholash geterogen ekanligini rad etib bo‘lmaydi. Uyatni boshdan kechirayotgan odam o‘zini “nafrat va masxara obyekti sifatida, kulgili, kamsitilgan, kichik shaxs tarzida his qiladi, nochorlik, qobiliyatsizlik kabilarni tuyadi va vaziyatni tushunolmaydi” [3. B. 345].

“Lingvomadaniyatshunoslikda “uyat” konsepti ikki yondashuv asosida o‘rganilgan:

1. Emotsional jihatdan tadqiq etilganda, uyat inson fiziologiyasi va psixologiyasi bilan aloqadorlikda, madaniyat, millat kabi tushunchalardan yiroq holda o‘rganilgan.

2. Deontik jihatdan yondashilganda esa uyat har qanday harakat, voqea-hodisalarga baho berish tarzida tushuniladi va bu kabi tadqiqotlar uchun madaniyat, millat, geografik joylashuv, inson psixologiyasining ahamiyati juda katta. Chunki baho modalligi barcha xalqlarda turlicha tarzda rivojlangan” [4. B. 411].

Keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlarda, asosan, uyatning inson ma’naviy va moddiy olamiga ijobiy yoki salbiy ta’sir etish xususiyatiga e’tibor qaratildi. Aynan shuning uchun ham XX asrda uyat insonga tegishli bo‘lgan “mulk” tarzida qaray boshlandi va uyat etiketning eng yuqori belgilaridan biri, axloqning yetuk ko‘rinishi sifatida baholandi. “Umumlashtirgan holda, falsafa va axloq uyatni etik yetuklik mezoni, shaxsning axloqiy o‘ziga xosligi belgilaridan biri sifatida ta’riflaydi. Uyat – o‘z qilmishi, noo‘rin xatti-harakatidan xijolatlik hissi, nomus; axloq-odob, taomil talabiga to‘g‘ri kelmaydigan, unga zid ish, xatti-harakat” [10. B. 314].

Antropologik tadqiqotlarda uyat universaliya sifatida baholanadi va uning o‘ziga xosligi doimiylik va o‘zgaruvchanlik dixotomiyasi bilan bog‘lanadi. Uyat insonga xos bo‘lgan doimiy hissiyot, uning ta’siri barcha madaniyat vakillari uchun bir xil, ammo namoyon bo‘lish shakli turfa xil bo‘ladi. Olim F.Zimbardo o‘z hamkasblari bilan o‘tkazgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, “uyat hissini qo‘zg‘atuvchi eng faol vaziyatlarga quyidagi holatlar kiradi:

- katta guruh diqqat markazida bo‘lish (masalan, nutq so`zlash);
- past ijtimoiy kelib chiqish;
- umumiy ijtimoiy situatsiyalar;
- yangi, notanish vaziyatlar;
- o‘zini himoya qilish zarurati;
- baholanish jarayoni;
- kichik guruh odamlarning diqqat markazida bo‘lish;
- atrofda begonalar mavjudligi;
- qarama-qarshi jinsdagi odamlar guruhi;
- o‘z kasbining mutaxassisi (o‘qituvchi, olim kabi) va boshqalar” [11. B. 22].

“Uyat” konsepti bilan bog‘liq freymni quyidagi ketma-ketlikda ifoda etish mumkin:

1) dominant sema (hissiyot);

2) hissiyot sababi (o‘z qilmishi, xulq-atvorining noto‘g‘riligi, nojo‘yaligining iqrori);

3) intensifikatorlik (kuchli xijolatlilik hissi);

4) hissiyotning qarama-qarshi xususiyati;

5) hissiyotning fiziologik jihatdan namoyon bo‘lishi” [12. B. 101].

Uyatni tuyayotgan insonda dastlab dominant sema (hissiyot) vujudga keladi. Bu hissiyotning sababi aniqlanadi va aybiga iqror bo‘lish jarayoni boshlanadi hamda eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi, aynan shu cho‘qqida inson o‘zini oqlashga, tinchlantirishga va uyat hissiga qarshi chiqishga harakat qiladi. Qarama-qarshilik natijasida ushbu shaxs yuzlari qizarishi, o‘ta hayajonlanishi, duduqlanishi, bir joyda tura olmasligi, mavzuni o‘zgartishi kabi holatlar kuzatiladi. “Yuqoridagi freym ketma-ketligi turli madaniyat vakillari uchun har xil bo‘lishi mumkin, ammo uyatning psixologik va fiziologik jihatlari barcha uchun bir xil. “Uyat” lingvomadaniy konsept sifatida chuqur tahlilni talab etadi. Uning o‘ziga xosligi ushbu hodisaning murakkabligi, ijtimoiy-psixologik tabiati, insonning ijtimoiylashuvi bilan bog‘liqligi, madaniy va tarixiy omillarga aloqadorligi, verbal va noverbal vositalar yordamida ifodalanishi bilan izohlanadi. Natijada uyat psixolog, faylasuf, sotsiolog, antropolog, tarixchi, madaniyatshunos, adabiyotshunos, tilshunos olimlar tomonidan o‘rganiluvchi obyektga aylanadi. [12. B. 100].

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar asosida “uyat” konsepti bo‘yicha quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin.

“Uyat – psixologik va sotsiologik birlik;

Uyat – chegara;

Uyat – taqiq;

Uyat – xatti-harakatlarni tartibga soluvchi vosita;

Uyat – komfort (ichki qulaylik)dan chiqish;

Uyat – qo‘rquvning bir turi”.

Shu jihatdan uyatchanlik, iboli va hayolilik o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan sifatlardan ekani, o‘zbek erlarining or-nomusni birinchi o‘ringa qo‘yishi millatimiz dunyoqarashida “uyat”ning muhim tushuncha ekanligiga dalil bo‘ladi, shuning uchun unga lingvomadaniy konsept deb qarash mumkin:

“– *Meni o‘rtoqlarim oldida* ***sharmanda qilding.***

– Odamning har nima bo‘lgani yaxshi. Sen faqat o‘zingni o‘ylaysan. Bir pullik manfaating uchun boshqa odamning obro‘sini oyoq ostiga olib tepkilashdan ham toymaysan. Bilib turibman. Og‘aynilaring bilan garov baylashib meni chaqirding. ***Uyalmaysanmi? Vijdoning bormi o‘zi?”*** (Said Ahmad).

Ushbu matnda “uyat” konseptining bir necha asosiy jihatlarini tahlil qilishimiz mumkin. Birinchi jumlada (“*Meni o‘rtoqlarim oldida sharmanda qilding”)* uyatning ijtimoiylik xususiyati aks etgan. Boshqa jamiyatlardagi kabi o‘zbek madaniyatida ham ijtimoiy uyat – inson xatti-harakatlarini boshqaruvchi kuchli omildir. Bu yerda uyat insonning jamoa oldida sharmanda bo‘lish hissini ifodalaydi. Ikkinchi jumlada esa suhbatdoshning axloqsizligiga e’tibor qaratiladi: *“Bir pullik manfaating uchun boshqa odamning obro‘sini oyoq ostiga olib tepkilashdan ham toymaysan”.* Bu jumla retsipiyent ma’naviyatida uyatning mavjud emasligini, unda vijdon va axloqiy tamoyillarning yo‘qligini ifodalaydi. Bu yerda uyat nafaqat his-tuyg‘u, balki axloqiy tanbeh sifatida ham namoyon bo‘ladi. *“Uyalmaysanmi? Vijdoning bormi o‘zi?”* savoli uyatni ichki kechinmalar sifatida idrok qilishni ta’kidlaydi. O‘zbek madaniyatida “vijdon” atamasi aybni ma’naviy anglash bilan bog‘liqdir. Matnda gender rollariga ishora qiluvchi elementlar ham bor. *“Og‘aynilaring bilan garov baylashib meni chaqirding”* jumlasi erkak tinglovchilarni nazarda tutadi, bu yerda ayolni xor qilish orqali erkak o‘z o‘rtoqlari oldida o‘z pozitsiyasini tasdiqlashga uringan. Bu o‘zbek jamiyatida erkaklardan ayolga nisbatan izzat-hurmatni saqlash kutilishini aks ettiradi. Matnda ishlatilgan leksik birliklar (“sharmanda”, “vijdon”, “uyalmaysanmi”) uyat konseptining o‘zbek madaniyati va axloqiy normalari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu yerda “sharmanda” so‘zi shunchaki holatning tasviri emas, balki madaniyatga xos bo‘lgan uyat hissini ifodalovchi so‘zdir.

Shuningdek, “uyat”, “uyat bo‘ladi” so‘zlari orqali o‘zbeklar taqiqni nazarda tutadilar:

“Sukut uzoqqa cho‘zilgandan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

– Nimaga indamaysiz? Ho‘p, deng! Katta odam, ***uyat bo‘ladi.*** *Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki... O‘zlarini bo‘lsa, o‘zingiz bilasiz, – dedi.”* (Abduhamid Cho‘lpon).

Matndagi so‘zlovchining *“katta odam, uyat bo‘ladi”* jumlasi jamiyatda katta yoshdagi insonlarga qaratilgan intizomni, ularga nisbatan nima qilish mumkin hamda nima qilish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Bu yerda uyat yoshi katta odamlarning hurmati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, katta yoshdagi insonlar o‘z xatti-harakati bilan jamiyat oldida namuna bo‘lishlari kerak. *“O‘zlarini bo‘lsa, o‘zingiz bilasiz”* jumlasidan so‘zlovchining shaxsiy mas’uliyatga ishora qilayotgani ko‘rinadi. Bu yerda uyat shaxsiy xulq-atvorning asosiy mezoni bo‘lib, uning buzilishi jamiyat tomonidan salbiy baholanadi. So‘zlovchining “jiddiy bir chehra bilan” so‘zlarini davom ettirishi uyatning sezilarli darajada kuchli his-tuyg‘u sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu his-tuyg‘u nafaqat shaxsning ichki holati, balki atrofdagilar bilan munosabatiga ham ta’sir qiladi.

“Uyalmaysanmi?”, “uyat bo‘lmaydimi?”, “uyaling” kabilar taqiqni ifodalovchi va xatti-harakatlarni tartibga solish, pand-nasihat qilish uchun o‘zbeklar tomonidan kundalik hayotda eng ko‘p qo‘llaniluvchi birliklardir:

*“– O‘lgan odamning orqasidan malomat qilmang, gunohga botasiz**. Uyaling-e,** o‘z bolangizdan tonmoqchisiz-a? Bolamiz, xudoga shukur, esli-hushli, oydek bola. Hali ko‘rasiz, bir-ikki yilda lochindek, qarchig‘aydek bo‘lib ketadi. Bu gapni bir aytdingiz, ikkinchi og‘zingizga olmang.???”* (Said Ahmad).

Keltirilgan mazkur matnda o‘zbek xalqi uchun “uyat” konsepti madaniy, axloqiy va ijtimoiy hayotda muhim o‘rin egallashini yaqqol ko‘rish mumkin. Matnda qahramonlarining nutqi va ishlatilgan iboralar orqali “uyat” konsepti inson xatti-harakatlari va jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Matndagi *“uyaling”* so‘zi taqiqni ifodalagan. Bunday so‘zlar shaxsning nojo‘ya yoki jamiyatda maqbul bo‘lmagan xatti-harakatlarini cheklashga xizmat qiladi. So‘zlovchining *“Uyaling-e, o‘z bolangizdan tonmoqchisiz-a?”* so‘zlari o‘zbek madaniyatida uyatning pand-nasihat qilish vositasi sifatida qanchalik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Bu yerda uyat orqali inson o‘z xatosini anglashga va to‘g‘ri yo‘lga qaytishga undaladi. Berilgan parcha orqali “uyat” konsepti inson xatti-harakatlarini cheklash, pand-nasihat qilish va jamiyat qadriyatlarini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Madaniy taqiqlar diniy taqiqlar bilan chambarchas bog‘liq. Madaniyat kabi din ham inson xatti-harakatlarini tartibga solib turadi. Islomda uyatning o‘rni muhim bo‘lib, diniy adabiyotlarda musulmon kishining eng yaxshi sifatlaridan biri uyatchanlik hissi ekanligi aytiladi. Bunda uyat insonning gunoh ishlar qilishdan bosh tortishi, ulardan jirkanishi va keyinchalik yuzi qora bo‘lishdan qo‘rqib o‘zini tiyishidir. Shuningdek, islom dini tushunchalariga ko‘ra, hayoning mavjudligi, iymonning kamoli va to‘liqligidan dalolat beradi. Hayo haqida so‘z ketganda Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallamning bir muborak hadislarini eslasak, o‘rinli bo‘ladi. U zot aytganlarki: “Har bir dinning xulqi bor. Islomning xulqi hayodir” [13].

“*Mehmon Ikromjonga qaradi.*

– O‘zlari ham shu kolxozdan bo‘ladilarmi?

– Shundoq, – dedi Ikromjon.

– Sizlarga qoyilman. Kolxozlaringdan qahramon chiqdi. Butun respublikaga dovruqlaring ketdi. Ertaga gazetani ko‘rasizlar, hammasi sizlarga bag‘ishlanib chiqadi. Qiziq, biri qahramon, biri qochoq.

*Ikromjonning **yuragi shuv etib ketdi. Uni kimdir go‘yo elektr toki bilan urgandek bo‘ldi. Tili gapga kelmay, nimalardir deb g‘o‘ldiradi. Keyin qizarib ketdi.”*** (Said Ahmad)

Ikromjonga hech kim ta’na qilmadi, hech kim unga “Sen aybdorsan, shunday farzand o‘stirgan otaga ming la’nat!” degan so‘zlarni aytmadi. Ikromjon o‘zini o‘zi aybladi, “Nega mening farzandim ham qahramon bo‘lmadi?” deya o‘zini o‘zi koyidi, vijdon azobida qiynaldi. Birgina “qo‘rqoq” so‘zi orqali uning tafakkurida o‘g‘li gavdalandi, chunki shu so‘z abadiyatga o‘g‘li yelkasiga yopishgan edi. Qahramon yuragi shuv etgani, tili gapga kelmay qolgani, qizarib ketishi kabi holatlar uning or-nomusli ekanidan darak beradi. Matnda Ikromjonning reaksiyasi batafsil tasvirlangan: *“Yuragi shuv etib ketdi”* – bu obrazli ifoda bo‘lib, birdan paydo bo‘lgan ichki bezovtalikni, qo‘rquv va noqulaylikni bildiradi. *“Uni kimdir go‘yo elektr toki bilan urgandek bo‘ldi”* – bu ifoda hissiy zarbani tasvirlab, kutilmagan va kuchli ruhiy tebranishni ko‘rsatadi. *“Tili gapga kelmay… Keyin qizarib ketdi”* – uyat va xijolatning o‘ziga xos tashqi belgilaridir. Mazkur fiziologik detallar orqali yozuvchi uyatni nafaqat fikr yoki baho sifatida, balki kuchli hissiy-tanaviy tajriba sifatida ko‘rsatadi. “Uyat” bu yerda shunchaki hissiyot emas, balki ijtimoiy va jamoaviy o‘zini baholashning asosiy elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif odamning boshqalar tomonidan unga beriladigan bahoga qanchalik bog‘liq ekanligini va bu baho qanday qilib ichki iztiroblarni keltirib chiqarishini ko‘rsatadi.

Inson jamoat oldida gap-so‘z bo‘lishni istamay jamiyatdagi qonun-qoidalarga bo‘ysunib yashaydi, mana shu yerda uyatning yana bir o‘ziga xos jihati – qo‘rquv hissi bilan o‘zaro birlashishini ko‘rish mumkin. Omma oldida nutq so‘zlash, namoyish qo‘yish taraddudida bo‘lganlarda ham qo‘rquv aralash uyat hissi mavjud bo‘ladi. “O‘z ishimni qoyillatmasam odamlar nima deydi?”, “Nima degan odam bo‘laman?” kabi o‘ziga cheklovlar qo‘yish, o‘zini o‘zi koyish kabi jihatlar ham o‘zbek xalqi psixologiyasida chuqur o‘rin egallagan: *“Badalbekning qaynanasi qizini chaqirib, eringga ayt, yangi kuyov qo‘ni-qo‘shnilar oldida **uyat emasmi**, deb qoldi. Ichkuyovga go‘rni bir nima deb bo‘ladimi? Dunyoda ichkuyovdan nozik narsa yo‘g‘-a!”* (Said Ahmad) Keltirilgan parcha o‘zbek jamiyatining ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini, ayniqsa “uyat” (sharmandalik, ijtimoiy uyat) konseptini yorqin namoyon etadi. Ushbu sahna orqali muallif nafaqat shaxsiy hissiyotlarni, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidagi uyatning o‘rnini ham ko‘rsatadi. Ushbu matndan “uyat” konseptiga oid quyidagi xulosalarni keltirib chiqarish mumkin: qo‘ni-qo‘shnilar va jamiyatning fikri individual yoki oilaviy hayotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi; ichkuyovlik o‘zbek madaniyatida erkakning maqomi va oilaning ijtimoiy holatining pastligini bildiradigan holat sifatida baholanadi; ichkuyovlik holati jamiyatning o‘tkir tanqidi va nazari ostida qolgan odamning ichki va tashqi uyat hissini aks ettiradi; uyat bu yerda nafaqat hissiy holat, balki jamiyatning ma’lum tartib-qoidalari buzilganida yuzaga keladigan muhim ijtimoiy mexanizm hamdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinadiki, sotsiologik jihatdan uyat ijtimoiy me’yorlarning buzilishidir. Ammo bu me’yorlarni qabul qilish va qabul qilmaslik insonning o‘ziga bog‘liq. Shuningdek, uyatning sotsiologik jihati haqida so‘z ketganda, uning “ijtimoiy kamsitish” tushunchasi bilan bog‘liqligini ham unutmaslik darkor. Bunda nutq jarayonining qulay oqimiga ijtimoiy kelib chiqish, gender, yosh kabi jihatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi, ammo eng muhim belgi situativlik hisoblanadi. Chunki bir vaziyatda uyatli hisoblangan xatti-harakat, boshqa vaziyatda o‘rinli deb topilishi mumkin. *“Azizxon Lutfinisani kelinlik libosi bilan devor oshib olib qochibdi.* ***Birov: “Boplabdi, qoyil qipti”****, – deydi. Birov “****bu g‘irt ahmoqlik****”, – deydi.” (Said Ahmad)*

Mazkur matnda ijtimoiy normalar va individual xatti-harakatlarning qarama-qarshiligi ko‘rsatilgan. Azizxonning qilgan ishi va uni omma tomonidan turlicha baholanishi (“Boplabdi, qoyil qipti” va “Bu g‘irt ahmoqlik”) orqali muallif uyatning vaziyatga va jamiyatdagi madaniy qoidalarga bog‘liqligini ochib beradi. Kelin o‘g‘irlash – bu o‘zbek xalqi uchun hallollik va odobga zid keluvchi xatti-harakat bo‘lib, madaniy kontekstda bu qiz va uning oilasiga sharmandalik hisoblanadi. “Boplabdi, qoyil qipti” jumlasi orqali jamiyatning bir qismi bu ishni jasorat va qat’iyat sifatida qabul qilishi mumkinligini tushunamiz. Bu talqinda uyat hissi chetda qoladi, asosiy e’tibor esa Azizxonning dadilligiga qaratiladi. Bu fikr tarafdorlari normalarga qarshi chiqib, individual iroda va xohishni ustun qo‘yadi. Jamiyatning boshqa qismi esa bu xatti-harakatni axloqiy normalarni buzish sifatida qoralaydi (“Bu g‘irt ahmoqlik”). Bu talqinda uyat axloqsizlik va harakatning salbiy oqibatlari bilan bog‘liq. Ushbu qarash an’anaviy normalarni qo‘llab-quvvatlaydi va jamiyat a’zolarini ularga rioya qilishga undaydi. Uyat bu yerda nisbiy tushuncha bo‘lib, har bir shaxs yoki guruhning madaniy qadriyatlari va ijtimoiy qarashlariga bog‘liq holda talqin qilinadi.

“Aravakash zoti urishqoq, so‘kishda birovdan orqada qolmaydigan xalq bo‘ladi. Ammo Toshlog‘-u Marg‘ilonga so‘z bermay kelayotgan bu zo‘ravonlar Azizxonning oldiga borolmay turganlarini ko‘rgan Ummatali ularga ermakomuz qarab qo‘ydi.

– ***Uyat-e****, shu yosh boladan kaltak yeb o‘tirsalaring. Bu gavda savlat ekan-da.*

U shunday deb o‘g‘lini turtib-turtib chetga olib chiqdi.

– ***Sening dastingdan biron joyda xotirjam bitta piyolagina choy icha olamanmi, yo‘qmi****? He, senga polvonlikni o‘rgatgan Hojimuqondan o‘rgildim!*

Azizxon dadasiga ***betma-bet kelolmasdi****. Har qanday to‘polon qilmasin, har qanday qiliq qilmasin, dadasi ko‘ziga qarasa, shashtidan qaytar,* ***churq etib og‘iz ochmasdi.”*** (Said Ahmad)

Parchada “uyat” konsepti personajlarning o‘zaro munosabatlari va xatti-harakatlari orqali ochib beriladi. Ummatali, uning o‘g‘li Azizxon va aravakashlar o‘rtasidagi ziddiyatli vaziyat uyatning ijtimoiy va shaxsiy jihatlarini ko‘rsatadi. Uyat bu yerda nafaqat madaniy va ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida, balki tarbiya va xulqni shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ummatali o‘g‘lining xatti-harakatlaridan noroziligini tanbeh va kinoya orqali bildiradi: *“Uyat-e”* so‘zi nafaqat aravakashlarga, balki Azizxonga ham qaratilgan. Bu yerda Ummatali o‘g‘liga uning qilgan ishlari otasining umidlari va talablariga javob bermayotganini bildirmoqda. Ummatali: *“Sening dastingdan biron joyda xotirjam bitta piyolagina choy icha olamanmi?”* deb o‘g‘lining xatti-harakatlari uning hayotiga qanday noqulayliklar keltirayotganini ta’kidlaydi. Bu bilan u Azizxonga o‘z mas’uliyatini his qildirishga urinadi. *“Azizxon dadasiga betma-bet kelolmasdi”* jumlasi o‘g‘ilning otasiga nisbatan hurmatini, shuningdek undan uyalishini ham ifoda etadi. Azizxon tabiatan sho‘xliklar qilishga qodir bo‘lsa-da, otasi qarshisida uning o‘zini tutishi butunlay o‘zgaradi: u bo‘ysunadi va sukut saqlaydi. Mazkur matnda uyat bir vaqtning o‘zida shaxsiy va jamoaviy ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Aravakashlar odatda kuchli va agressiv xalq sifatida tanilgan bo‘lsa-da, yosh Azizxondan mag‘lub bo‘lishlari ular uchun sharmandalikdir. Bu mag‘lubiyat jamoaning ijtimoiy qadr-qimmatiga zarar yetkazadi. Shaxsiy uyat esa Azizxonga tegishli bo‘lib, u otasi tomonidan tanbeh eshitgach, o‘zining noto‘g‘ri xatti-harakatini anglaydi va bu unga shaxsiy uyalish hissini beradi. Mazkur matnda “uyat”ning o‘zbek madaniyatiga xos xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek oilaviy tizimida ota markaziy o‘rinni egallaydi, va uning fikri oiladagi barcha a’zolar uchun katta ahamiyatga ega. Azizxonning otasi oldida uyalishi bu madaniy qoidani aks ettiradi. Aravakashlarning mag‘lub bo‘lishi esa ular uchun nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy sharmandalikdir. Bu holat esa o‘zbek madaniyatida jamoaviy obro‘ tushunchasining ham naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Uyat hissi, asosan, aloqa jarayonida yuzaga kelar ekan, u nafaqat axborot berilganda (“uyat sizga”, “sharmanda bo‘ldingiz”), balki so‘rash – ritorik savol berilganda ham yuzaga chiqadi. Bunday usulni qo‘llashdan so‘zlovchining asosiy maqsadi – bu tinglovchiga hissiy ta’sir o‘tkazish, uni bu kabi ishlarni qayta qilishdan qaytarish hisoblanadi:

“Akbarali ***ko‘chaga chiqolmay, hovlining u boshidan-bu boshiga so‘kinib borib-kelib turardi****. Eshikdan kirib kelgan er-xotinni ko‘rib bir zum o‘zini yo‘qotdi. He yo‘q, be yo‘q, o‘dag‘aylashga tushdi:*

– He, muttaham bola o‘stirgan senlardan o‘rgildim. Qani, jo‘na, tuyoqlaringni shiqillatib qollaring!

– Hoy, shoshma bolam. O‘zingni bos!

– Meni shuncha chiqimdor qilib, ***el-yurt oldida sharmandamni chiqarib, yana qaysi yuz bilan ostona hatlab keldinglar? Uyat, sharmandalik bu! Sizlarda or degan, nomus degan narsa bormi? Diyonat qani?”*** (Said Ahmad)

Yuqorida “uyat” konsepti murakkab hodisa sifatida tasvirlangan bo‘lib, u hissiy, ijtimoiy va axloqiy jihatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Uyat faqat shaxsiy histuyg‘ularni ifodalash uchungina emas, balki madaniy qadriyatlar va me’yorlarni eslatish, ularni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Matnning asosiy g‘oyasi – axloqiy me’yorlar va obro‘ni saqlashning muhimligi bo‘lib, ular ijtimoiy uyg‘unlik asosida yotadi. Uyat Akbarali uchun jamiyat oldidagi obro‘sini yo‘qotish bilan bog‘liq (“el-yurt oldida sharmandamni chiqarib”). Bu uyatning ijtimoiy mohiyatga ega ekanini, ya’ni u jamiyat bosimi ostida paydo bo‘lishi haqidagi fikrimizni dalillaydi.. Akbarali boshqa qahramonlarni or, nomus va diyonat kabi sifatlarga ega emasligi uchun ayblaydi. *“Uyat, sharmandalik bu!”* va *“Sizlarda or degan, nomus degan narsa bormi?”* kabi tanbehlar uyatning ijtimoiy me’yorlardan tashqari holatda yuzaga kelishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbek madaniyatida jamoatchilik fikriga katta e’tibor beriladi. Bu yerda uyat nafaqat shaxsiy kechinma, balki ijtimoiy nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. “Uyat” konsepti ijtimoiy me’yorlarni buzish holati sifatida namoyon bo‘lib, bu faqat shaxsiy obro‘-e’tiborga emas, balki butun qarindoshlarning obro‘siga tahdid sifatida ko‘riladi. Qahramon nutqi *“He, muttaham bola o‘stirgan senlardan o‘rgildim”, “Qani, jo‘na, tuyoqlaringni shiqillatib qollaring!”, Sizlarda or degan, nomus degan narsa bormi?” “Diyonat qani?” kabi* hissiy bo‘yoqdor leksika va ritorik savollarga boy. “Uyat” va “sharmandalik” leksemalari “uyat” konseptini ifodalash uchun asosiy birliklar hisoblanadi. Ular nafaqat qahramonning holatini ifodalaydi, balki murojaat qilingan shaxslarni qoralash vazifasini ham bajaradi.

O‘zbek madaniy muhitida maqtov, xushomad natijasida ham odamda uyat hissi paydo bo‘lishini kuzatish mumkin. Bunday holatda uyat hissi bilan birgalikda inson xavotirlik, xursandchilik, o‘zidan o‘zi qoniqish va faxrlanish kabi hislarni tuyadi. O‘zbeklar kundalik hayotida bir-biriga xushomad qilish va olqishlash holatlarini, asosan, o‘zidan ijtimoiy kelib chiqishi yuqori bo‘lgan shaxsga yoki qarama-qarshi jinsga nisbatan qo‘llaydilar:

“Bobur maqtovlardan xiyol ***o‘ng‘aysizlanib:***

– Janoblar, – dedi, – men sizlardek san’atkorlar bilan uchrashib, suhbatlashganim uchun tangriga shukr qilamen.” (P.Qodirov)

““Yuzlaringiz juda tiniq ekan, xayolkash qizlarning yuzlari shunday nurlanadi.”

Rajab e’tiroz bildirishga urindi-yu, ammo eplay olmadi. Maqtovdan masrurlanib beixtiyor jilmaydi. Bo‘rtiq yonoqlariga andak ***qizillik indi***.”(Luqmon Bo‘-rixon)

Berilgan matnda “uyat” konsepti yumshoq va ijobiy shakllarda aks ettirilgan. Bu hissiyot ijtimoiy me’yorlar, madaniy qadriyatlar va hissiy reaksiyalar bilan uzviy bog‘liq. Uyat bu yerda ijtimoiy muloqotda o‘z-o‘zini boshqarish, hurmat ko‘rsatish va maqtovni kamtarlik bilan qabul qilish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Matn insoniy va madaniy qadriyatlarning ifodasini chuqur yoritadi. Boburning xiyol o‘ng‘aysizlanishi qilingan maqtovlardan noqulaylik his qilgani ifodasidir. . Bu uyatning yumshoq shakli bo‘lib, ijtimoiy muhitda o‘zini kamtar tutishga urinish bilan bog‘liq. Yuzga qizillik inishi esa uyat va quvonchning birlashuvi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqtovga javoban yuzning qizarishi nafaqat noqulaylikni, balki maqtovdan kelgan ichki mamnuniyatni ham aks ettiradi. O‘zbek madaniyatida kamtarlik va hurmat asosiy qadriyatlar hisoblanadi. Boburning kamtar so‘zlari va noqulaylikka yaqin hissiyotlari bu qadriyatlarni aks ettiradi. Maqtovni qabul qilish yoki unga javob berish odob-axloq qoidalariga mos kelishi kerak, bu holatda Bobur madaniy talablarga muvofiq harakat qiladi. Maqtovga javoban hissiyotlarning ziddiyatli tabiatini ko‘rish mumkin: inson o‘ziga qaratilgan e’tibordan bir vaqtning o‘zida ham quvonadi, ham noqulaylik his qiladi. Bu holat shaxsning o‘zini ijtimoiy muhitda qanday tutishini ko‘rsatadi: u o‘zini yo‘qotmaslik uchun his-tuyg‘ularini boshqaradi va kamtar bo‘lib qolishga harakat qiladi.

«“Uyat” konsepti lingvomadaniy belgi sifatida ruslarda, asosan, din bilan bog‘langan bo‘lsa, xitoy, yapon va o‘zbeklarda milliy an’ana va qadriyatlarga borib taqaladi» [9. B. 234].

Ushbu konsept uchun xos quyidagi xususiyatlar barcha millat vakillari uchun umumiylik kasb etadi:

“1. Uyatdagi modallik belgisi;

2. Uyatning intensifikatorligi natijasida yuzaga keluvchi ma’naviy zarar moddiy jabrdan ko‘ra kuchliroq ta’sirga ega bo‘lishi;

3. Uyat inson rohatlanib yashashi uchun to‘siq bo‘luvchi faktor sifatida” [9. B. 234].

V.A.Maslova ta’kidlaganidek, madaniyatning kalit so‘zi bo‘lish uchun so‘z ushbu til vakillari tomonidan tez-tez qo‘llanilishi, iboralar va maqollar tarkibida mavjud bo‘lishi lozim [1. B. 55]. O‘zbek millati o‘zining mehmondo‘stligi, kamtarligi, mehnatsevarligi bilan boshqa xalqlar yuragidan doimo joy olib kelgan. O‘zbeklar uchun xos bo‘lgan or-nomus, uyat, ibo-hayo, andisha kabi birliklar o‘zbek madaniyatida muhim

ahamiyatga ega. “Ko‘p hollarda yuqoridagi tushunchalar bir-biri bilan o‘rin almashib keladi yoki birining o‘rnida boshqasi ekvivalent tarzda qo‘llanilishi, bu jarayonda gender jihatdan farqlanishi mumkin [12. B. 102], lekin ushbu so‘zlar uchun xos bo‘lgan bir umumiy sema mavjud bu ham bo‘lsa, “sharmanda bo‘lmaslik”, “gap-so‘zga qolmaslik”dir. O‘zbek maqollari “uyat” konsepti tarkibiga kiruvchi elementlar bilan to‘la, “O‘zbek xalq maqollari” nomi ostida chop etilgan kitobda “Or-nomus va nomussizlik”, “Andisha va andishasizlik” kabi mavzularga alohida bo‘limlar ajratilgan [4]. Shuningdek, boshqa bo‘limlar ham “uyat” konsepti ostiga birlasha oluvchi maqollarni o‘z ichiga olgan. Masalan:

“Yo‘qlikning uyati yo‘q, o‘g‘rilik – uyat”;

“Andishaning oti — qo‘rqoq”;

“Yuz qizili ketar, yuz xijili ketmas”;

“Qo‘rqoqda uyat bo‘lmas”;

“Sha’ni-shavkat istasang, sharmandali yo‘ldan qayt”;

“Obro‘ isitar, uyat kuydirar”,

“Uyat – o‘limdan qattiq” va boshqalar. Ushbu maqollarning eng ahamiyatli jihati shundaki, ularning barchasida salbiylik ma’nosiga ega bo‘lgan leksemalar mavjud: o‘g‘rilik, qo‘rqoq, sharmandali kabi.

“Xayoli hayodan qo‘rqar, behayo nedan qo‘rqar”;

“Hayosi yo‘qning imoni yo‘q”;

“Hayosizlar yig‘ilgan yerda xayolilar toqqa qochar”;

“Uyati yo‘q o‘g‘il yomon, qilig‘i buzuq qiz yomon” kabi maqollarda esa zid ma’noli so‘zlar (hayoli – hayosiz, hayoli – behayo) yordamida ma’no yanada kuchaytirilgan va “uyatli, hayoli bo‘lish yaxshi” umumiy semasi yuzaga chiqqan. Demak, “uyat” konsepti o‘zbek xalqi kognitiv olamida ham ijobiy (hayoli qiz, nomusli er), ham salbiy ma’noda (uyatga qolmoq, sharmanda bo‘lmoq) ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, “uyat” o‘zbek madaniyatining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, uning mazmuni makon va zamon bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu dixotomiyaning o‘zgarishi natijasida uyatga bo‘lgan munosabat ham o‘zgarib boradi: ilgari uyatli deb hisoblangan vaziyat, xatti-harakat boshqa davrda yoki boshqa geografik joylashuvda oddiy holat bo‘lishi mumkin. Masalan, shahar va qishloqda yashovchi o‘zbek millati vakillari uchun “uyat” konsepti bir xil assotsiatsiya hosil qilmaydi, chet elda tug‘ilib o‘sgan o‘zbeklar uchun esa umuman boshqa dunyoqarash, madaniyat xos bo‘ladi va o‘z yurtidagi uyat bilan bog‘liq ayrim jihatlar ular uchun begonalik va g‘ayritabiiylik tarzida tushuniladi. Shuningdek, uyat hissining yuzaga kelishida diskursning turlari ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. *Маслова В.А*. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.

2. *Usmanova Sh.* Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. – 245 b.

3. *Izard C.E.* The psychology of emotions. – New York: Plenum Press, 1991. – 452 p.

4. *Апресян В.Ю*. Механизмы образования и взаимодействия сложных значений в языке: Дисс. докт. филол. наук. – Москва, 2015. – 637 с.

5. Plessner H. The levels of the organic and man: introduction to philosophical anthropology. – Moscow: ROSSPEN, 2004. – 448 p.

6. *Лотман Ю.М*. Статья по семиотике культуры и искусства. – Санкт-Петербург: Академический проект, 2002. – 436 с.

7. *Гергилов Р.Е.* Стыд. Философско-антропологическая перспектива. 2-е издание. – Санкт-Петербург: Свое издательство, 2016. – 199 с.

8. *Ильин Е.П*. Эмоции и чувства. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 752 с

9. *Дженкова Е.А.* Стыд и вина. /В кн.: Антология концептов. Том 3. – Волгоград: Парадигма, 2006. – С. 230–246.

10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. /А.Мадвалиев таҳрири остида. V жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006– 2008. – 608 б.

11. *Zimbardo P., Pilkonis P., Norwood R.* The silent prison of shyness. – Stanford, Stanford University, 1974. – 23 p.

12. *Xamdamova M.B.* Uyat konseptining subyektiv modallik sifatida o‘rganilishi // “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya to‘plami. – T.: Nodirabegim, 2021. – B. 99-102.

13. Islom dinining shiori – hayo haqida. Xayrulla domla Turmatov bilan suhbat [Elektron manba]. URL: https://kun.uz/news/2020/05/21/islom-dinining-shiori-hayo-haqida-xayrulla-domla-turmatov-bilan-suhbat (Murojaat etilgan sana: 23.08. 24)

“SHAME” AS A LINGUOCULTURAL CONCEPT

Munirakhon B. Makhmudova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2025. 1(85). 95-103.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str., University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *linguacultural studies, concept, concept of “shame”, emotional approach, deontic approach, frame, Uzbek nationality.*

One of the central objects of anthropocentric linguistics is the concept, and its role in linguoculturology studies is incomparable.

The cognitive process is related to conceptualization, a phenomenon that a person does not always understand, that is, the subconscious associates objects and actions with each other by analyzing the world around a person. Concept is one of the central objects of the science of linguoculturology, which emerged at the end of the 20th century. Any form of the concept cannot be the subject of lınguocultural studies, we call the core concepts of culture as the core (basic) units of the world view determined by culture, which are of existential importance both for an individual language person and for the lınguocultural community as a whole. “Lınguocultural concept exists in thinking, it combines cognitive-rational and emotional-psychological content. The lınguocultural concept serves as a worldview model for all language speakers. The lınguocultural concept is a cultural tool influencing the formation of national character”. One such concept is the concept of “shame”.

“Shame” is a unique, lınguocultural tool that is formed in the inner world of culture and emerges in accordance with moral standards. Under the concept of “shame” lies a cognitive process, and it emerges in the “I” of each person in an individual way, and is formed based on the culture of their nation and people.

Shame has its own characteristics for each culture. If the appearance of shame is psychologically homogeneous for everyone, it cannot be denied that its manifestation, response to it, reaction to related events, and evaluation are heterogeneous in the process of communication.

The research conducted in the following periods was mainly focused on the nature of positive or negative influence of shame on the human spiritual and material world. It is for this reason that in the 20th century, shame began to be viewed as a “property” belonging to a person, and shame was evaluated as one of the highest signs of etiquette, and began to be considered as a mature form of morality. In general, philosophy and ethics describe shame as a criterion of ethical maturity, one of the signs of a person’s moral identity. This article explores the concept of “shame” as a lınguocultural unit and talks about its place in Uzbek culture. As examples, lexemes within the framework of the concept of “shame” and contexts in which its creations were involved, as well as units containing the concept of “shame” were selected from the given texts.

At the end of the article conclusions were drawn as:

Shame is a psychological and sociological unity;
Shame is the limit;
Shame is a ban;
Shame is a tool that regulates behavior;
Shame is getting out of comfort (inner comfort);
Shame is a form of fear.

In short, “shame” is one of the main concepts of Uzbek culture, and its meaning is closely related to space and time.

References:

1. Maslova, V.A. (2001) Lingvokul’turologiya [Linguoculturology]. Textbook. Moscow: Akademiya.
2. Usmanova, Sh. (2019) Lingvokulturologiya [Linguoculturology]. Textbook. Tashkent.
3. Izard, C.E. (1991) The psychology of emotions. New York: Plenum Press.
4. Apresyan, V.Yu. (2015) Mekhanizmy obrazovaniya i vzaimodejstviya slozhnyh znachenij v yazyke [Mechanisms of formation and interaction of complex meanings in language]. The dissertation for Doctor of Philological Sciences. Moscow.

5. Plessner, H. (2004) The levels of the organic and man: introduction to philosophical anthropology. Moscow: ROSSPEN.

6. Lotman, Yu.M. (2002). Stat'ya po semiotike kul'tury i iskusstva [Article on the semiotics of culture and art]. Sankt-Peterburg: Akademicheskij proekt.

7. Gergilov, R.E. (2016) Styd. Filosofsko-antropologicheskaya perspektiva [Shame. Philosophical-anthropological perspective]. Sankt-Peterburg: Svoe izdatel'stvo.

8. Il'in, E.P. (2001) Emocii i chuvstva [Emotions and feelings]. Sankt-Peterburg: Piter.

9. Dzhenkova, E.A. (2006) Styd i vina [Shame and guilt]. In: Antologiya konseptov [Anthology of concepts]. Vol. 3. Volgograd: Paradigma.

10. Madvaliyev, A. (ed.) (2006) O'zbek tilining izohli lug'ati [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 4. Tashkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

11. Zimbardo, P., Pilkonis, P., Norwood R. (1974) The silent prison of shyness. Stanford, Stanford University.

12. Xamdamova, M.B. (2021) Uyat konseptining subyektiv modallik sifatida o'rganilishi // "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya to'plami [The study of the concept of shame as a subjective modality // Collection of the international conference on "Development of the Uzbek language and issues of international cooperation"]. Tashkent: Nodirabegim.

13. Islom dinining shiori – hayo haqida. Xayrulla domla Turmatov bilan suhbat [The motto of Islam is about modesty. Interview with Khayrulla Turmatov, a preacher]. [Online]. URL: https://kun.uz/news/2020/05/21/islom-dinining-shiori-hayo-haqida-xayrulla-domla-turmatov-bilan-suhbat (Date of Access: 23.08. 24)

Muallif haqida ma'lumot:

MAXMUDOVA Muniraxon Badriddin qizi – Andijon davlat universiteti O'zbek tili yo'nalishi doktoranti. E-mail: munira122699@gmail.com